


“O‘rmon xo‘jaligi, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq maqsadlarga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1	O‘zbekistonning qurg‘oqchil va shorlangan hududlarida galofit bog‘larini tashkil etish va istiqbolli cho‘l o‘simliklari urug‘lik genafondi yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Respublikaning cho‘l xududlaridan 122 turdagi istiqbolli galofit o‘simliklarining fitogenetik resurslari (urug‘lik banki) va kelajak seleksiyasi uchun milliy genofond poydevori yaratiladi. - O‘zbekiston florasidagi galofit o‘simliklar urug‘larining bazasi shakllantiriladi. Har bir turning botanik pasporti, morfologik tavsifi va xalqaro reyting ko‘rsatkichlari aks etgan elektron xatlov reyestri ishlab chiqiladi. - Tuproq va sizot suvlarining sho‘rlanishini kamaytirishda eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan galofit osimliklari turlari saralanadi hamda Orolbo‘yi va cho‘l hududlarida degradatsiyaga uchragan yerlarini ekologik sog‘lomlashtirishning (fitomelioratsiya) yangi ilmiy uslubiyoti yaratiladi. - Respublikaning turli hududlaridan ekspiditsiya jarayonlarida jamlangan galofit o‘simliklari urug‘chiligini (galofit bog‘larida) tashkil etish boyicha ilmiy-tadqiqotlar o‘tkaziladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsifanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.